

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “МАТЕМАТИКА” 5 – sinf uchun darslik.
J. Ikromov. Toshkent – 1998.
2. “МАТЕМАТИКА” 5 – sinf uchun darslik.
M.A.Mirzaahmedov. Toshkent – 2003
3. “МАТЕМАТИКА” 6 – sinf uchun o’quv qo’llanma.
J.Ikromov. Toshkent “O’QITUVCHI” 1999.
4. “ALGEBRA” 7 – sinf uchun o’quv qo’llanma.
SH.O.Alimov. Toshkent “YOZUVCHI” 2002
5. “ALGEBRA” 8 – sinf uchun o’quv qo’llanma.
SH.O.Alimov. Toshkent “O’ZBEKISTON” 2002
6. “МАТЕМАТИКА В ШКОЛЕ” va “КВАНТ” (Rossiya nashrlari)
jurnallarining turli yillardagi sonlari.

1. 1 2 3 4 5 6 7 8 9 raqamlarining ba’zilari orasiga “+” va “-“
ishoralarini shunday qo’yingki, natijada 100 hosil bo’lsin.
2. Bir dona qovun 50 so’m, handalak 10 so’m, bodring 1 so’m deylik. Bir
kishi 500 so’mga jami 100 ta qovun, handalak va bodring oldi. U nechta
qovun, nechta handalak va nechta bodring olgan?
3. Ovchi it o’zidan 120 m naridagi tulkini quva ketdi. Tulki 1 minutda
320 m, ovchi it 350 m yugursa, it tulkini necha minutda quvib yetadi?
4. Daryo ustidagi ko’prik yonida Soddadil va Mug’ambir uchrashib
qolishibdi. Mug’ambir: men senga yaxshilik qilmoqchiman. Shu ko’prikdan
har gal o’tganingda cho’ntagingdagi(hamyoningdagi) puling 2 barobar
ko’payib qoladi, ammo sen menga bu yaxshilik evaziga har gal o’tgach, 48
so’m berasan, debdi. Soddadilning ko’nmaslikka iloji qolmabdi. Ammo u
ko’prikdan 3 marta o’tgach, cho’ntagida puli qolmaganini sezibdi. Dastlab
Soddadilda qancha pul bo’lgan edi?
5. Bir ayol bog’ga olma tergani kirdi. Bog’dan 4 ta eshik orqali chiqishi
kerak edi. Har bir eshik oldida qorovul turgan bo’lib, ayol birinchi qorovulga
tergan olmalarining yarmini berdi. Ikkinchi qorovulga esa qolgan
olmalarning yarmini berdi. Uchinchi va to’rtinchi qorovullarni ham shunday
siyladi. Oxirida o’ziga 10 ta olma qoldi. Ayol bog’dan nechta olma uzgan?
6. (Al-Xorazmiy masalasi) Bir kishi 4 o’lcham bug’doy va 6 o’lcham arpa
oldi. 1 o’lcham arpaning narxi 1 o’lcham bug’doy narxining yarmiga teng.
Harid uchun to’langan pul arpa va bug’doy o’lchamlari ayirmasi bilan
narxlar ayirmasining yig’indisiga teng. 1 o’lcham arpa va 1 o’lcham
bug’doyning narxini toping.
7. 22 ta gugurt cho’pidan eng katta yuzli to’g’ri to’rtburchak yasang
(Cho’plarni sindirish mumkin emas).
8. 4 ta to’g’ri chiziq bilan tekislikni nechta qismga ajratish mumkin?
Mumkin bo’lgan barcha hollarni ko’rib chiqing.
9. Bir yilda eng ko’pi bilan necha marta yakshanba kelishi mumkin?

10. Tenglamani natural sonlarda yeching: $x \cdot x - 425 = 2075$
11. Yig'indini qulay usulda hisoblang: $\frac{1}{1 \cdot 2} + \frac{1}{2 \cdot 3} + \dots + \frac{1}{13 \cdot 14}$
12. Ko'paytmani hisoblang: $(1 - \frac{1}{4})(1 - \frac{1}{9})(1 - \frac{1}{16})(1 - \frac{1}{25})$
13. Bitta nonning narxi a so'm va yana yarimta non narxiga teng. Nonning narxini toping.
14. Ahmad va Rahmat futbol to'pi sotib olishmoqchi bo'lishdi. Ahmad Rahmatga: "Mening 48 so'mim bor. Agar bunga sendagi pulning $\frac{1}{5}$ qismini qo'shsak, to'pni sotib olamiz",-dedi. Rahmat Ahmadga: "Agar mendagi pulga sening pulingning $\frac{1}{6}$ qismini qo'shsak ham to'pni sotib olsak bo'larkan",-dedi. Rahmatda necha so'm bor va to'pning narxi qancha?
15. (Jamshid G'iyosiddin al-Koshiy masalasi) Bog'ga kirgan 1-kishi 1 dona, 2-kishi 2 dona, 3-kishi 3 dona, eng oxirgi kirgan kishi nechanchi o'rinda kirgan bo'lsa, shuncha dona olma uzib chiqdi. So'ngra olmalarning hammasini jamlab, baravar bo'lishganda har bir kishiga 15 donadan olma to'g'ri keldi. Xo'sh, bog'ga necha kishi kirgan va hammasi bo'lib nechta olma uzib chiqilgan?
16. Bir yo'nalish bo'yicha 10 ta avtobus bir xil tezlikda va bir xil vaqt oralig'ida harakatlanadi. Avtobuslar harakati oralig'i vaqtini $\frac{1}{6}$ marta qisqartirish uchun shu yo'nalishga yana nechta avtobus qo'yish kerak?
17. Bir yo'nalishda 8 ta mashina bir xil tezlikda va bir xil vaqt oralig'ida qatnaydi. Shu yo'nalishga yana 2 ta mashina qo'yildi. Mashinalar qatnash oralig'i necha marta qisqargan?
18. Belgilangan ishni 15 kishi 12 kunda bajarishi mumkin. 4 kun ishlagandan so'ng, beshinchi kuni ularga yordam berish uchun 5 kishi kelib qo'shildi. Qolgan ish necha kunda tugatilgan?
19. Bir ishni 10 kishi 8 kunda bajara oladi. 2 kundan so'ng (uchinchi kuni) ularga yordam berish uchun bir necha kishi kelib qo'shildi va qolgan ishni

176. $1+2+3+\dots+9=45$ raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linadi. Ammo 2006 soni 3 ga bo'linmaydi.

177. n -tugunlar soni bo'lsin, u holda ikkita tugunni tutashtiruvchi bo'g'inlarning umumiy soni $\frac{n \cdot 3}{2}$ ta bo'ladi. Bu yerda n -juft bo'lishi kerak.

J: mumkin emas.

178. $k = \frac{a}{b}$ deb belgilaylik, $\frac{c}{d} = k$ ham o'rinli.

$$(a+d) - (b+c) = kb + d - b - kd = (k-1)(b-d) > 0$$

179. x -tulkinging sakrashi uzunligi bo'lsin. t vaqtda tulki $9x$ masofani bosadi, it esa $6 \cdot \frac{7}{3}x = 14x$ masofa, $5x$ ga ortiq. $60x : 5x = 12$, $12 \cdot 6 = 72$ sakrashdan so'ng.

180. $\alpha = 2 + \sqrt{3}$, $\beta = 2 - \sqrt{3}$ bo'lsin. $\alpha + \beta = 4$, 4- irratsional son emas.

151. $2^{2006} - n$ xonali va $5^{2006} - k$ xonali bo'lsin. $10^{n-1} < 2^{2006} < 10^n$
va $10^{k-1} < 5^{2006} < 10^k$. Ikkisini mos ravishda ko'paytiramiz:
 $10^{n+k-2} < 10^{2006} < 10^{n+k}$, bundan $n+k-2 < 2006 < n+k$. $n+k-1=2006$
 $n+k=2007$ J: 2007 xonali.

152. Quyidagicha o'zgartiramiz: $T > I > R > A > K > V > O > P > S > N$. Bundan,
TRANSPORTIROVKA=976012379873456

153. $a=2^{5 \cdot 9}=32^9$, $b=3^{4 \cdot 9}=81^9$, $c=4^{3 \cdot 9}$, $d=5^{2 \cdot 9}=25^9$. $d < a < c < b$

154. x -mevali muzqaymoqning narxi bo'lsin. U holda, $x+100$ -olxo'rili,
 $x+200$ -shokaladli muzqaymoqning narxi bo'ladi. Hamma to'lov
 $700+800+900=2400$ so'm bo'ladi. $4(x+x+100+x+200)=12x+1200=2400$,
 $x=100$ so'm.

J: mevali- 100 so'm; olxo'rili-200 so'm; shokaladli-300 so'm.

155. n -izlanayotgan son bo'lsin, $n=43q+q=44q$, va q -eng katta bo'lishi
kerak. n -uch xonali son, $q=22$ bo'ladi. $44 \cdot 22=968$. J: 968

156. n^2-n juft son. $(a^2+b^2+c^2+d^2)-(a+b+c+d)$ ifoda juft son.
 $a+b+c+d > 2$ - juft son. Demak u murakkab.

157. 8 ta ketma-ket kelgan sonlarning bittasi 8 ga, bittasi 4 ga va yana
ikkitasi 2 ga bo'linadi. Demak, ifoda $128k+7!$ bo'linadi. Uni $128k+7!$
ko'rinishda. $128k+7!=a^2+b^2$ ($a, b \in \mathbb{N}$). a va b juft son, aks holda a^2+b^2 soni
4 ga bo'linmaydi. $a=2c$, $b=2d$ bo'lsa, $32k+180 \cdot 7=c^2+d^2$. c va d ham juft
sonlar, $c=2p$, $d=2q$ va shuning uchun $8k+45 \cdot 7=p^2+q^2$, bunda p va q ning
bittasi toq, bittasi juft. Oxirgi tenglikning o'ng tomonini 4 ga bo'lganda 3
qoldiq qoladi, chap tomonini 4 ga bo'lganda esa 1 qoldiq qoladi. Bu ziddiyat.

J: hech qanday natural n da.

158. $29n^2-18n+5 = p(n)^2-q(n)^2 = (p(n)+q(n))(p(n)-q(n))$ ildizga ega bo'lsin.
Ammo uning diskriminanti manfiy, demak u ildizga ega emas.

J: mumkin emas.

159. n^2 -o'ylangan son, n -natural son. $\sqrt{n+2}+2=n^2$, ammo $n > 2$ uchun
 $\sqrt{n+2}+2 < \sqrt{n+n}+n < \sqrt{n \cdot n}+n = 2n < n^2$, demak $n \leq 2$ ekan.
Ravshanki, $n=2$ va o'ylangan son 4 ga teng. J: 4 ni o'ylagan

42. Agar uch xonali sondan uning raqamlarini teskari tartibda yozishdan
xosil bo'lgan uch xonali son ayrilsa, hosil bo'lgan ayirmaning moduli 9 ga va
11 ga bo'linishini isbotlang.

43. Ikkita ketma-ket toq natural son kvadratlari ayirmasining moduli shu
sonlar yig'indisining ikkilanganiga teng bo'lishini isbotlang.

44. Agar ikki xonali x son raqamlari orasiga shu sonning o'zini yozilsa, u
holda hosil bo'lgan to'rt xonali son dastlabki sondan 66 marta katta bo'ladi.
 x ni toping.

45. 16^5+2^{15} ifodaning 33 ga bo'linishini isbotlang.

46. $333^{555}+555^{333}$ sonli ifodaning qiymati 37 ga bo'linishini isbotlang.

47. $11^{11}+12^{12}+13^{13}$ ifodaning qiymati 10 ga bo'linishini isbotlang.

48. n - ixtiyoriy natural son bo'lganda, n^3+3n^2+5n+3 ifodaning qiymati
3 ga bo'linishini isbotlang.

49. 2003^{2003} soni qanday raqam bilan tugaydi?

50. Besh xonali sonni 9 ga ko'paytirganda yana besh xonali son hosil bo'ldi.
Ammo bu sonda avvalgi son raqamlari teskari tartibda joylashgan. Avvalgi
sonni toping.

51. $2003 \cdot 2004 \cdot 2005 \cdot 2006 + 1$ soni biror x sonning kvadrati bo'lishini isbot
qiling va x ni toping.

52. Kasrni qisqartiring: $\frac{2a^2-5ab+3b^2}{2a^2-ab-3b^2}$

53. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a^2-bc}{(a+b)(a+c)} + \frac{b^2-ac}{(b+c)(a+b)} + \frac{c^2-ab}{(a+c)(b+c)}$

54. Temiryo'l stansiyasiga yaqin joydagi dala hovlisida yashovchi bir kishi
odatda dala hovlidan stansiyaga poyezd jo'nashiga taqab 18 minutda kelardi.
Bir kuni u kishi yo'lga chiqishdan oldin hovlida bir necha minut ushlanib
qoldi. Shundan keyin u tezligini odatdagidan 1,2 marta oshirgani bilan
baribir poyezdga 2 minut kechikdi. U yo'lga chiqishdan oldin uyida necha
minut ushlanib qo'lgan?

55. Hovuzni ertaga soat 16 gacha to'ldirish uchun bugun soat 13 da bitta quvur ochishdi. Lekin hovuzni soat 12 gacha to'ldirish kerak bo'lib qolgani uchun biror vaqtdan so'ng xuddi shunday ikkinchi quvur ochib qo'yildi. Ikkinchi quvurni soat nechada ochishgan?

56. A qishloqdan B bekata qarab piyoda kishi yo'lga chiqdi. Oradan 1 soat-u 24 minut o'tgandan keyin xuddi shu yo'nalishda A dan velosipedchi yo'lga chiqdi va 1 soat o'tgandan keyin velosipedchining piyoda kishiga yetishiga 1 km bor edi. Oradan yan bir soat o'tgandan keyin esa velosipedchi B ga yetib borishi uchun piyoda kishiga qaraganda 2 marta kam masofa qoldi. Agar AB masofa 27 km ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, piyoda kishining va velosipedchilarning tezliklarini toping.

57. Velosipedchi ma'lum tezlik bilan harakat qilib, A bekatdan B bekatga belgilangan vaqtda yetib keldi. Agar u shu tezligini 3 km/soat ga oshirganda edi, belgilangan joyga muddatdan bir soat oldin yetib kelar edi, agar u tezligini 2 km/soat ga kamaytirganda edi, u holda manzilga bir soat kechikkan bo'lar edi. A va B bekatlar orasidagi masofani, velosipedchining tezligini va harakat vaqtini toping.

58. Birinchi quvur hovuzni ikkinchi quvur uning $\frac{2}{3}$ qismini to'ldirishga ketgan vaqtning yarmida to'ldiradi. Ikkinchi quvurning o'zi hovuzni birinchisiga qaraganda 6 soat kech to'ldiradi. Har bir hovuzni quvur alohida-alohida qancha vaqtda to'ldiradi?

59. Mis bilan rux qotishmasida mis ruxdan 640 g ortiq. Qotishmadan undagi misning $\frac{6}{7}$ qismini va 60% ruxni ajratib olishganidan keyin qotishmaning massasi 200 g ga teng bo'lib qoldi. Dastlab qotishmaning massasi qancha bo'lgan?

60. A qishloqdan piyoda kishi, B qishloqdan unga qarab velosipedchi yo'lga chiqdi. Ular uchrashganlaridan keyin piyoda B ga qarab yo'lni davom ettirdi, velosipedchi esa orqasiga qaytib, u ham B ga qarab jo'nadi. Piyoda B ga velosipedchidan 2 soat kech yetib kelganligini, piyodaning tezligi esa velosipedchidan 3 marta kam ekanligi ma'lum. Harakat boshlangandan to piyoda bilan velosipedchi uchrashguncha qancha vaqt o'tgan?

61. A qishloqdan B qishloqqacha bo'lgan 11, 5 km uzunlikdagi yo'l avval

tekshirsak, 1- son katta chiqadi. J: 1-son katta

142. Tug'ilgan yili albatta 1 bilan boshlanadi:

$$\begin{array}{r} 1xyz \\ + 7452 \\ \hline zyxl \end{array}$$

$z=9$ ligi aniq. $x+y$ soni 5 ga bo'linishi kerak. $y+6=10+x$ va $x+5=10+y$ mumkin emas, demak, $y+6=x$. Masala shartini $x=8$, $y=2$ qanoatlantiradi.

J: 1829-yil tug'ilgan

143. x, y, z -mehmonxonalar soni bo'lsin. $17x+37y+5z=123$, $y \leq 3$.
 $y=1$ da, $17x+5z=86$ faqat $x=3$, $z=7$ da o'rinli, ammo $x+y+z=11$ bo'ladi.
 $y=3$ da, $17x+5z=12$, bu mumkin emas; $y=2$ da topamiz, $17x+5z=49$, $x=2$, $y=3$.
 J: 1-turdan 2 ta; 2-turdan 2 ta; 3-turda 3 ta.

144. Ikkinchi tengsizlik $x^2-x \geq -a$ ko'rinishga keladi, bunda faqat $a^2 \geq -a$ ning yechimi bo'lganda qanoatlantiradi. Demak, $a \leq -1$, $a \geq 0$

145. Mustaqil yechishga urinib ko'ring.

146. Sonni va uning raqamalari yig'indisini 3 ga bo'lganda bir xil qoldiq qoladi. Bir xil raqamlardan tuzilgan sonlar ayirmasi 3 ga bo'linadi. Ammo 2006 soni 3 ga bo'linmaydi. J: mavjud emas.

147. $700+10x+y=100x+10y+7+117$, bundan $90x+9y=576$ kelib chiqadi, yoki $10x+y=64$, $x=6$, $y=4$ J: 764

148. 3-ishtirokchi $(60+80):2=70$ ball to'plagan. 4-ishtirokchi $(60+80+70):3=70$ ball to'plagan. Shunday qilib qolgan hamma ishtirokchi 70 balldan to'plagan. J: 70 ball

149. x^5y va xy^5 bir xil juftlik, ya'ni ikkalasi bir vaqtda toq yoki bir vaqtda juft bo'ladi. Ammo 2007-toq son bo'lgani uchun, bu qoida buziladi, demak tenglama butun sonlarda yechimga ega emas.

150.
$$\begin{array}{r} 103\overline{)48} \\ - 96\overline{)2} \\ \hline 7 \end{array}$$

Agar n toq bo'lsa, 4^n-1 soni 3 ga bo'linadi, ammo 5^n-1 soni 3 ga bo'linmaydi. J: yo'q

132. \overline{yx} va \overline{zy} lar $\{16,25,36,49,64,81\}$ dan biri. $y \in \{1,4,6\}$, $x \in \{6,9,4\}$ $z \in \{3,6,8\}$. $x+z \leq 9$, $z=3$, $x=4$ yoki 6, masala shartini faqat uchta raqam bajaradi - (4,6,3).

133. Yo'q. Masalan: $13\sqrt{484} + 31\sqrt{484} = 484+484$. Agar n toq bo'lsa, 4^n-1 soni 3 ga bo'linadi, ammo 5^n-1 soni 3 ga bo'linmaydi. J: yo'q

134. Shartdan kelib chiqadiki, $(n+1)^2 - 5$ bilan tugaydi. Aniq kvadrat bo'lgani uchun 25 bilan tugaydi. $n^2+2n - 24$ bilan tugaydi. J: 2

135. $5^3+7^3=468$ dan foydalanami, $x=5 \cdot 468$, $y=7 \cdot 468$.

136. J: (3,0,2,5) va (2,0,2,5)

137. $x^2+y^2=99\dots 9$, ko'rinib turibdiki, x va y dan bittasi toq. Toq sonning kvadratini 4 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladi. Ammo $99\dots 9$ ko'rinishdagi sonlarni, 9 dan boshqasini 4 ga bo'lganda 3 qoldiq qoladi. Demak 9 dan boshqa yechim yo'q. $9=3^2+0^2$

138. Osongina ko'rish mumkinki, har qanday natural sonning 5-darajasini oxirgi raqami o'zining oxirgi raqami bilan bir xil bo'ladi. 20^5-7 xonali, 10^5-6 xonali. Demak, $10 < x < 20$, masala shartiga ko'ra u son ham 4 bilan tugaydi. Bu son 14 ga teng. J: 14

139. Agar n masala shartini qanoatlantirsa, n^3-1 soni 5 ga bo'linadi, demak n soni 1 yoki 6 bilan tugaydi. $n=5k+1$ ko'rinishda bo'ladi.

$\frac{n^3-1}{5} = 25k^3+15k^2+3k = k(25k^2+15k+3)$, $k < 25k^2+15k+3$. Bu faqat $k=1$ da tub son, $n=6$. J: $n=6$ da .

140. $2^{62}+1 = 2^{62}+2 \cdot 2^{31}+1-2^{32} = (2^{31}+1)^2 - (2^{16})^2 = (2^{31}+2^{16}+1)(2^{31}-2^{16}+1)$

141. $n \geq 1$ uchun quyidagi tengsizlik o'rinli:

$$\sqrt{n+1} - \sqrt{n} < \sqrt{n} - \sqrt{n-1} \quad (1)$$

(1) dan foydalansak, $\frac{1}{\sqrt{n+1}+\sqrt{n}} < \frac{1}{\sqrt{n}+\sqrt{n-1}}$ o'rinli. $n=1,3,5,7,9$ ni qo'yib

tepalikka ko'tariladi, keyin tekislik bo'ylab, va nihoyat, pastlikka qarab boradi. Piyoda kishi A dan B gacha bo'lgan yo'lga 2 soat-u 54 minut, qaytishdagi yo'lga esa 3 soat-u 6 minut vaqt sarf qildi. U tepalikka 3 km/soat tezlik bilan ko'tarildi, tekis yo'lda 4 km/soat tezlik bilan yurdi, pastga esa 5 km/soat tezlik bilan tushdi. Yo'lning tekislik bo'ylab o'tadigan qismi necha km ni tashkil etadi?

62. Ona qizi bilan gilam to'qishmoqda. Agar ular doimo birga ishlashsa, gilam 15 haftada tayyor bo'lishini hisoblashdi. Aslida esa ular faqat birinchi 8 hafta davomida birgalikda ishlashdi, shundan so'ng faqat qizi ishlay boshladi va u 28 haftadan so'ng gilamni to'qib bo'ldi. Ona-bola alohida - alohida ishlaganlarida har biri gilamni necha haftada to'qib bo'lishlari mumkin?

63. Uchburchak ichida yotuvchi istalgan nuqtadan uning uchlarigacha bo'lgan masofalar yig'indisi shu uchburchak yarim perimetridan katta ekanini isbotlang.

64. Tenglamani yeching: $|x+3|=|x-5|$

65. Agar $a \geq \sqrt{b}$, $b \geq 0$ bo'lsa,

$$\sqrt{2a+2\sqrt{a^2-b}} = \sqrt{a+\sqrt{b}} + \sqrt{a-\sqrt{b}} \text{ tenglikni isbotlang.}$$

66. Istalgan musbat a va b sonlar uchun quyidagi tengsizlik bajarilishini isbotlang: $\sqrt{\frac{a}{b}} + \sqrt{\frac{b}{a}} \geq 2$

67. Ikki sonning yig'indisi $\sqrt{14}$ ga, ularning ayirmasi esa $\sqrt{10}$ ga teng. Shu sonlarning ko'paytmasi 1 ga teng ekanini isbotlang.

68. Agar x_0 son $ax^2+bx+c=0$, bunda $c \neq 0$, tenglamaning ildizi bo'lsa, u holda $\frac{1}{x_0}$ son $cx^2+bx+a=0$ tenglamaning ildizi bo'lishini isbotlang.

69. $x^2+px+3=0$ kvadrat tenglamaning x_1 va x_2 ildizlari $x_2=3x_1$ shartni qanoatlantiradi. p , x_1 va x_2 larni toping.

70. Ifodani soddalashtiring: $\frac{a-b}{\sqrt[3]{a-\sqrt[3]{b}}} - \frac{a+b}{\sqrt[3]{a+\sqrt[3]{b}}}$

71. $3x^2-8x-15=0$ tenglamaning x_1 va x_2 ildizlarini hisoblamasdan quyidagilarni toping: 1) $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2}$ 2) $x_1^2+x_2^2$ 3) $\frac{x_1}{x_2} + \frac{x_2}{x_1}$ 4) $x_1^3+x_2^3$
72. Shaxmat bo'yicha birinchilikda 231 partiya o'ynaldi. Agar har bir shaxmatchi har biri bilan bir martadan o'ynagan bo'lsa, birinchilikda hammasi bo'lib nechta o'yinchi qatnashgan?
73. r ning $(r^2-1)x^2+2(r-1)x+2>0$ tengsizlik x ning barcha haqiqiy qiymatlarida bajariladigan barcha qiymatlarini toping.
74. "Maymunlar galasi" degan hind masalasi:
Ikki to'da bo'lib maymunlar,
O'ynab ko'ngil ochishar.
Sakkizdan birining kvadrati
Chakalakzorga qochishar.
O'n ikkisi shodlanib,
Sakrashib o'ynayotir.
Nechta ekan maymunlar,
Top-chi, sen ham bosh qotir?
75. Istalgan a, b, c sonlar uchun quyidagi tengsizliklar bajarilishini isbotlang: 1) $\frac{a}{b} + \frac{b}{c} + \frac{c}{a} \geq 3$ 2) $\frac{a}{b+c} + \frac{b}{a+c} + \frac{c}{a+b} \geq \frac{3}{2}$
76. r ning barcha shunday qiymatlarini topingki, $x^2+(r-1)x-2(r-1)=0$ kvadrat tenglama $x_1-x_2=3$ shartni qanoatlantiruvchi x_1 va x_2 haqiqiy ildizlarga ega bo'lsin.
77. Tenglamani yeching: $\frac{1}{x^2} + 2 \cdot \frac{1}{x} = 1\frac{1}{4}$
78. $3+\sqrt{5}$ ga ko'paytirganda 1 hosil bo'ladigan sonni toping.
79. 1 dan 100 gacha bo'lgan barcha natural sonlarning ko'paytmasi nechta nol bilan tugaydi?
80. $10^{15}+10^{17}-74$ sonining 9 ga bo'linishini isbotlang.

121. $4x^4+12x^3+5x^2-6x-15=(4x^4+12x^3+9x^2)-(4x^2+6x+15)=(2x^2+3x)^2-2(2x^2+3x)-15=(2x^2+3x-5)(2x^2+3x+3)$
Tenglama $x_1=1, x_2=-2,5$ ildizlarga ega.
122. $\sqrt{1681}=8\sqrt{16}+1\cdot\sqrt{81}$ 1,6,8,1 raqamlar qanoatlantiradi.
123. 173-tub son. $n^3-3n^2+4=(n+1)(n-2)^2$ ifoda 173 ga bo'linadi, agarda $n-2$ yoki $n+1$ ifoda 173 ga bo'linsa. Bunday eng kichik son - $173\cdot170^2$
124. $\sqrt{y}=1984-\sqrt{x}$, bundan $y=1984^2-2\cdot1984\sqrt{x}+x$,
 \sqrt{x} -ratsional son, x -ratsional sonning kvadrati, ammo x -butun son, aniq kvadrat. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki y -ham aniq kvadrat. 1984 ni ikki butun sonning yig'indisi ko'rinishida 1985 usulda ifodalash mumkin.
125. $(\sqrt{4+\sqrt{15}}+\sqrt{4-\sqrt{15}})^2=8+2=10$ va $4(3-\sqrt{5})=12-4\sqrt{5}=(\sqrt{10}-\sqrt{2})^2$
 $\sqrt{4+\sqrt{15}}+\sqrt{4-\sqrt{15}}=\sqrt{10}$, $2\sqrt{3-\sqrt{5}}=\sqrt{10}-\sqrt{2}$
Berilgan ifoda $\sqrt{2}$ ga teng.
126. Mumkin. 4, 5, 6 - tomlarni olib, 3-tom turgan kitob yoniga qo'yamiz.
127. Agar 1984 ni n marta yozsak, 9 ga va 11 ga bo'linishdan hosil bo'lgan son 99 ga bo'linadi, qachonki n 9 ga va 11 ga bo'linsa. Shuning uchun 1984 soni $99k$ marta yozilishi kerak.
128. 2007 ta. 124-masalaga qarang.
129. $ABCDE$ beshburchakni olaylik. $\angle A+\angle C>180^\circ$ ni isbotlash kerak. AD diagonalni o'tkazaylik, $ABCD$ to'rtburchakda $\angle BAD+\angle C=180^\circ$. Ammo $\angle BAE>\angle BAD$ va shuning uchun $\angle BAE+\angle C>180^\circ$
130. $n+1=k^2$, $2n+1=m^2$ bo'lsin; m -toq son, $m=2s+1$, $n=2s(s+1)$ -juft son, k esa toq son. $n=(k+1)(k-1):8$.
Boshqa tomondan, $3n+2=k^2+m^2$, k^2 ni va m^2 ni 3 ga bo'lganda qoldiq 1 chiqadi. Demak n soni 3 ga bo'linadi. Va nihoyat n soni 24 ga bo'linadi.
131. Agar n juft bo'lsa, 4^n soni 6 bilan tugaydi, 4^n-1 soni 5 ga bo'linadi, ammo 5^n-1 ifoda 5 ga bo'linmaydi;

113. Izlanayotgan sonni 1986 ga bo'lganda chiqadigan sonning oxirgi raqami 8 bo'ladi. Quyidagicha topamiz:

$$\begin{array}{r} 1987 \\ \underline{1078} \\ 15896 \\ 13909 \\ \underline{1987} \\ 2141986 \end{array} \qquad 2141986=1987 \cdot 1078$$

114. $x^2 + \sqrt{2}x + 2$ kvadrat uchhadning diskirminanti manfiy. Demak uchhad istalgan x da musbat. Tenglama yechimga ega emas.

115. $10x + y = x^3 + y^2$, yoki, $10x - x^3 = y^2 - y$, $10x - x^3$ musbat juft son. $10x \geq x^3$ va x -juft son. $x=2$ va $y=4$ ni topamiz. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, 24 dan boshqa ikki xonali son masala shartini qanoatlantirmaydi. J: 24

116. $n = \overline{AS} + \overline{AR}$ ning kvadrati to'rt xonali son. n 49 dan katta emas, $A \leq 4$. $A=4$ uchun, $n \geq 80$, $n^2 \geq 6400 > \overline{ASAR}$. $A=3$ uchun, $n \geq 60$, $n^2 > 3600$, $S \geq 6$, $n \geq 66$ bo'lsa, $n^2 \geq 4356 > \overline{ASAR}$. $A=1$ uchun $n \leq 38$, $n^2 < 1444$; ammo $S \leq 4$, $n \leq 33$ da $n^2 \leq 1089$, $S=0$; $n \leq 29$ da n^2 -uch xonali son.

Demak, $A=2$. $2025=45^2$, $2916=54^2$. Ammo 2025 soni masala shartini qanoatlantiradi.

117. $1900 < 2^n - 2^k \leq 2000$. $2^{10} < 1900$, demak, $n \geq 11$; $n \geq 12$ uchun, $2^n \geq 4096$ va ixtiyoriy n va k ($n > k$) uchun $2^n - 2^k > 200$, bundan ko'rinadiki $n=11$. k ni topish biz uchun unchalik qiyin emas.

$$1920 = 2^{11} - 2^7, \quad 1984 = 2^{11} - 2^6 \text{ lar masala shartini qanoatlantiradi.}$$

118. $4x^3 - 5x^2 - 6x + 3 = 4x^2(x-2) + 3(x-1)^2$ dan ko'rinib turibdiki, tenglamaning ildizi $x \geq 2$ shartni qanoatlantirmaydi.

119. Osongina topish mumkinki, 10^6 ni 7 ga bo'lganda qoldiq 1 ga teng. 10^{6+r} ni ham, 10^r ni ham 7 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladi. Boshqa tomondan 10^n ni 6 ga bo'lganda 4 qoldiq qoladi. Berilgan yig'indini 7 ga bo'lganda quyidagicha qoldiq topiladi:

$$10^4 + 10^4 + \dots + 10^4 = 10 \cdot 10^4 = 10^5. \text{ qoldiq 5 ga teng. J: 5 ga teng}$$

$$120. a+b+c$$

81. Istalgan natural n da $n^3 + 11n$ soni 6 ga bo'linishini isbotlang.

82. Agar x va y lar shunday butun sonlarki, $3x+8y$ ifoda 17 ga bo'linadi, u holda $35x+65y$ ham 17 ga bo'linishini isbotlang.

83. Ikkita toq son kvadratlarining yig'indisi butun sonning kvadratiga teng bo'la olmasligini isbotlang.

84. Agar ikkita butun son kvadratlarining yig'indisi 3 ga bo'linsa, u holda bu sonlardan har biri 3 ga bo'linishini isbotlang.

85. Agar p son 3 dan katta bo'lgan tub son bo'lsa, u holda $p^2 - 1$ son 24 ga bo'linishini isbotlang.

86. $x+y=xy$ tenglamani qanoatlantiruvchi butun sonlarni toping.

87. Hisoblang: $\frac{1}{1+\sqrt{2}} + \frac{1}{\sqrt{2}+\sqrt{3}} + \dots + \frac{1}{\sqrt{99}+\sqrt{100}}$

88. Agar a, b, c lar jufti-jufti bilan o'zaro teng sonlar bo'lmasa, u holda $a^2(c-b) + b^2(a-c) + c^2(b-a)$ ifoda nolga teng bo'la olmasligini isbotlang.

89. Ifodani soddalashtiring: $\frac{1}{1-x} + \frac{1}{1+x} + \frac{2}{1+x^2} + \frac{4}{1+x^4} + \frac{8}{1+x^8} + \frac{16}{1+x^{16}}$

90. Tenglamalar sistemasini yeching: $\begin{cases} x^2 + xy = 10 \\ y^2 + xy = 15 \end{cases}$

91. Istalgan a, b, c sonlar uchun quyidagi tengsizliklar bajarilishini isbotlang:

$$1) a^2 + b^2 + c^2 \geq ab + ac + bc \qquad 2) (a+b+c)^2 \leq 3(a^2 + b^2 + c^2)$$

92. a va b ning istalgan qiymatlari uchun quyidagi tengsizliklar bajarilishini isbotlang:

$$\begin{array}{ll} 1) a^2 + b^2 \geq 2(a+b-1) & 2) 2a^2 + 5b^2 \geq 2ab \\ 3) a^4 + b^4 \geq a^3b + ab^3 & 4) a^2 + ab + b^2 \geq 0 \\ 5) a^2 + b^2 \geq ab + a + b - 1 & 6) (a^2 + b^2)(a^4 + b^4) \geq (a^3 + b^3)^2 \end{array}$$

93. To'rt xonali sonni mingligidan qolgan qismi ayrilib shunday ikki xonali son hosil qilindiki, uning 1-raqami dastlabki sonning 1-raqami bilan,

2-raqami esa dastlabki sonning 3-raqami bilan mos tushadi. Shu to'rt xonali sonni toping.

94. 1982 sonini raqamlari bir xil ikkita ikki xonali son kvadratlari ayirmasi va shu raqamlar ayirmasi yig'indisi ko'rinishida ifodalang.

95. $\frac{16}{31}$ metr matodan buklash orqali yarim metr qirqib olish mumkinmi?

96. 1 dan 6 gacha raqamlardan 11 ga bo'linadigan raqamlari har xil son tuzish mumkinmi?

97. $n^2+3n+39$ va n^2+n+37 sonlari, $n \in N$ bir vaqtda 49 ga bo'linishi mumkinmi?

98. $n^2+3n+59$ va n^2+n+57 sonlari, $n \in N$ bir vaqtda 49 ga bo'linadimi?

99. Gimnastikachilar seksiyasi a'zolarining o'rtacha yoshi 11 yosh; seksiya boshlig'ining yoshi 17 yosh, guruh a'zolarining, boshlig'dan tashqari o'rtacha yoshi 10 yosh. Seksiyada nechta a'zo bor?

100. 11 ta futbolchining o'rtacha yoshi, kapitansiz 10 tasining o'rtacha yoshidan 1 yosh ko'p. Kapitanning yoshi 11 ta futbolchining o'rtacha yoshidan qancha ko'p.

101. Qaysi biri katta, $\frac{368972}{764797}$ mi, yoki $\frac{368975}{764804}$ mi?

102. \overline{xyztu} - aniq kvadrat 5 xonali sonni topingki, $\overline{xy}=u^2$ va \overline{yu} - aniq kvadrat bo'lsin.

103. Tenglama nechta yechimga ega: $\overline{xy} + \overline{zt} = \overline{yz}$

104. 13742 va 16974 sonlarini ba'zi n natural songa bo'lganda, qoldiqda mos ravishda 7 va 6 qoladi. n nechaga teng?

105. 5^n+1 soni 5^k-1 soniga bolinadimi?

106. Ikki xonali sonning kubi 432 bilan tugashi mumkinmi?

108. $y=x+h$ orqali belgilaylik va berilgan sistemaga qo'yamiz:

$$\begin{cases} 49(x+h) + 271x = -7 \\ 33x + 77(x+h) = 25 \end{cases} \text{ soddalashtirishlardan so'ng topamiz:}$$

$$\begin{cases} x = \frac{-7-49h}{320} \\ x = \frac{25-77h}{110} \end{cases} \text{ demak, } \frac{-7-49h}{320} = \frac{25-77h}{110}, \text{ bundan } h = \frac{777}{1925} > 0. y > x$$

J: $y > x$ va $\frac{777}{1925}$ ga katta.

109. $[0;1]$ oraliqda tengsizlik to'g'riligi ko'rinishida berilgan. $a > 1$ uchun $a = 1 + c$ deb belgilaylik. U holda, $a^5 - a^2 - 3a + 5 = (1+c)^5 - (1+c)^2 - 3(1+c) + 5 = (1+c)^2 \cdot (1+c)^3 - 1 - 3c + 2 = (c^2 + 2c + 1)(c^3 + 3c^2 + 3c) - 3c + 2 = (c^2 + 2c) \cdot (c^3 + 3c^2 + 3c) + c^3 + 3c^2 + 3c - 3c + 2 = (c^2 + 2c)(c^3 + 3c^2 + 3c) + c^3 + 3c^2 + 2 > 0$

110. $x < 1000$, shuning uchun $x^4 < 10^{12}$, demak n^4 soni 12 ta 9 ning yig'indisidan katta emas, $n^4 \leq 1008$, bundan $n \leq 3$. Shuning uchun, $x \in \{300, 201, 210, 102, 120, 111, 200, 101, 110, 100\}$ Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, masala shartini faqat 100, 101 va 110 bajaradi.

J: 100, 101, 110

111. $4444^{4444} < 10^{4 \cdot 4444}$, bu son $4 \cdot 4444 < 20000$ ta 9 dan iborat sondan kichik. Shuning uchun $a < 180000$. Demak a soni 6 xonali sondan katta emas, $b \leq 54$. Lekin, c soni b ning raqamlari yig'indisi, 13 dan katta emas.

Boshqa tomondan, har qanday sonni va uning raqamlari yig'indisini 9 ga bo'lganda bir xil qoldiq chiqadi. Shunday qilib, c ni 9 ga bo'lgandagi qoldiq, 4444^{4444} ni 9 ga bo'lgandagi qoldiqqa teng. $4444^{4444} = (9k-2)^{4444} = 9p+2^{4444} = 9p+(2^6)^{740} \cdot 2^4 = 9p+(63+1)^{740} \cdot 16 = 9m+16 = 9n+7$ Bundan ko'rinadiki, $c=7$ J: 7

112. 111... sonini ketma-ket 41 ga bo'lib borganimizda dastlabki 0 qoldiq 11111 sonida chiqadi. Keyingi 0 qoldiq yana 5 ta raqamdan keyin takrorlanadi. Demak, u son $5k$ ta 1 lardan iborat.

99. n -a'zolar soni, S -boshlig'dan tashqari a 'zolarning umumiy yoshi.

$$\frac{S+17}{n} = 11, \quad \frac{S}{n-1} = 10, \quad S = 10n - 10 \quad 10n + 7 = 11n, \quad n = 7 \quad \text{J: 7 ta}$$

100. n -kapitanning yoshi, S - qolgan o'yinchilarning umumiy yoshi bo'lsin.

$$\frac{S+n}{11} - \frac{S}{10} = 1, \quad 10n - S = 110 \leftrightarrow 11n - (S+n) = 110 \leftrightarrow n - \frac{S+n}{11} = 10$$

J: 10 yosh katta

101. $a=368972$, $b=764797$ bo'lsin.

$$\frac{a}{b} - \frac{a+3}{b+7} = \frac{7a-3b}{b(b+7)}, \quad \text{ammo } 7a > 7 \cdot 360000 = 252 \cdot 10000$$

$$3b < 3 \cdot 770000 = 231 \cdot 10000 \quad \text{J: 1-son katta}$$

102. $y \in \{1,2,3,4,6,8\} \cap \{1,4,5,6,9\} = \{1,4,6\}$, $\overline{yu} \in \{16,49,64\}$,

$$u \in \{6,9,4\}, \quad \overline{xy} \in \{16,36,81\}$$

$$x=1, y=6, u=4. \quad 16004 < m^2 < 16994, \quad 125 < m < 132,$$

$$125^2 > 15625, \quad 132^2 > 17000, \quad 128^2 = 16384 \quad \text{J: 16384 soni}$$

103. $10x+y+10z+t=10y+z$, $10x+t=9(y-z)$, x va $z \neq 0$, $2 \leq y-z \leq 8$

$z=1$ da 7 ta yechim; $z=2$ da 6 ta; ...

$$7+6+5+4+3+2+1=28 \quad \text{J: 28 ta yechim}$$

104. $13742=np+7$, $16974=nq+6$. n soni $13742-7=13735$ va

$16974-6=16968$ sonlarining umumiy bo'luvchilaridan biri bo'ladi.

$$13735=5 \cdot 41 \cdot 67, \quad 16968=2^3 \cdot 3 \cdot 7 \cdot 101, \quad n > 7.$$

$$EKUB(13735;16968)=1 \quad \text{J: yechim yo'q}$$

105. $n > 1$, $k > 1$ uchun 5^n+1 soni 26 bilan tugaydi. U 4 ga bo'linmaydi.

5^k-1 soni 24 bilan tugaydi. U 4 ga bo'linadi. J: bo'linmaydi

106. n^3 agar 2 bilan tugasa, $n=10k+8$ ko'rinishda bo'ladi.

$$n^3 = 1000k^3 + 2400k^2 + 1920k + 512 = 100m + 10(2k+1) + 2$$

